



TASDIQLAYMAN
Sirdaryo viloyati statistika
boshqarmasi boshlig'i

U.S.Elmuratov

2024-yil 5-iyun

**Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasining Turmush darajasi statistikasi va uy
xo'jaliklari kuzatuvlari bo'limi to'g'risida**

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi Turmush darajasi statistikasi va uy xo'jaliklari kuzatuvlari bo'limining (keyingi o'rnlarda bo'lim deb ataladi) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatlar, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Bo'lim O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagи "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-114-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan va Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasining (keyingi o'rnlarda boshqarma deb ataladi) tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi.

3. Bo'lim o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, Oliy Majlisning normativ qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risidagi qonuni"ga, Statistika agentligining qaror va buyruqlariga, "Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi to'g'risida"gi Nizomga, mazkur Nizomga, shuningdek, boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

4. Bo'lim turmush darajasi statistikasi va uy xo'jaliklari kuzatuvlari masalalari bo'yicha faoliyatini Boshqarmaning tarkibiy bo'linmalari, hamda mahalla fuqarolar yig'inlari bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

5. Bo'lim o'z faoliyatini boshqarma boshlig'i rahbarligida amalga oshiradi.

6. Bo'lim o'z vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha Boshqarma boshlig'i o'rnbosariga bo'ysunadi.

2-bob. Bo'limning vazifalari va funksiyalari

7. Quyidagilar Bo'limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

a) turmush darajasi statistikasi va uy xo'jaliklari kuzatuvlari qismi bo'yicha Statistika ishlari dasturini ishlab chiqarish dasturida belgilangan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash;

b) turmush darajasi statistikasi va uy xo'jaliklari kuzatuvlari bo'yicha so'rovlarni va boshqa kuzetuvlarni tashkil etish va o'tkezishni ta'minlash;

v) turmush darajasi statistikasi va uy xo‘jaliklari kuzatuvlari bo‘yicha Sirdaryo viloyatidagi eng muhim ijtimoiy hodisa va jarayonlarning dastlabki statistik tahlillarini olib borish;

g) ishonchli statistika ma’lumotlarini taqdim etishda uy xo‘jaliklari respondentlariga har tomonlama ko‘maklashish, statistik ma’lumotlarni taqdim etish sohasida huquqiy madaniyatni oshirishda ishtirok etish, statistik nazoratni amalga oshirishning zamonaviy usullarini joriy etish;

d) turmush darajasi statistikasi va uy xo‘jaliklari kuzatuvlari bo‘yicha olingan statistika ma’lumotlarining maxfiyligi, davlat sirlariga ega bo‘lgan statistika ma’lumotlarining himoya qilinishini ta’minlash;

e) turmush darajasi statistikasi va uy xo‘jaliklari kuzatuvlari bo‘yicha Statistika agentligining ma’lumotlari asosida ommaviy axborot vositalarida diagrammalar va grafiklarni keng namoyish qilish, statistik nashrlarga ko‘rsatkichlarni vizuallashtirishning ilg‘or usullarini joriy etish yo‘li bilan alohida statistik ko‘rsatkichlar to‘g‘risida aholini xabardor qilish bo‘yicha choralarni ko‘rish.

8. Bo‘lim o‘z zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

Statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturida turmush darajasi statistikasi va uy xo‘jaliklari kuzatuvlari bo‘yicha belgilangan ishlarning to‘liq va muddatlarida bajarilishini ta’minlaydi;

Bo‘limga taalluqli bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari, shu jumladan elektron shakldagi murojaatlarning tegishli qismini ko‘rib chiqadi va ulardagi masalalarni hal qilish bo‘yicha takliflar tayyorlaydi;

turmush darajasi statistikasi va uy xo‘jaliklari kuzatuvlari sohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar, jarayonlar va ularning natijalari to‘g‘risidagi statistika axborotlarini yig‘adi, qayta ishlaydi, to‘playdi, saqlaydi, umumlashtiradi, tahlil qiladi va e’lon qiladi;

o‘tkazilgan tanlanma kuzatuvlar natijalarining tezkorligi, ishonchliligi va xolisligini, statistik axborotlarning qulayligi, ochiq-oydinligi va oshkoraligini kengaytirish bo‘yicha choratadbirlar amalga oshirilishini ta’minlaydi;

Bo‘lim belgilangan tartibda o‘ziga yuklatilgan boshqa funksiyalarni ham amalga oshiradi.

3-bob. Bo‘limning huquqlari va majburiyatları

9. Bo‘lim o‘ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Turmush darajasi statistikasi bo‘yicha davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan, banklardan, boshqa yuridik shaxslardan (zarur hollarda – ularning vakolatxonalari va filiallaridan) belgilangan tartibda davlat statistika hizmati hujjatlarini olib oshirish; amalga oshirish;

boshqarma rahbariyatiga turmush darajasi statistikasi va uy xo'jaliklari kuzatuvlari samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar kiritish;

rasmiy statistika sohasida me'yoriy-huquqiy bazani rivojlantirish va takomillashtirishda, statistik kuzatuvlar metodologiyasi va metodikasini ishlab chiqishda takliflar berish;

davlat statistika ishlarini ishlab chiqish Dasturiga asosan statistika ishlarini o'z muddatlarida bajarilishini ta'minlash;

Bo'limning vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha Boshqarmaning bo'limlari bilan yo'riqnomalar berish bo'yicha yig'ilishlar o'tkazish;

Turmush darajasi statistikasi va uy xo'jaliklari kuzatuvlari bo'yicha kuzatuv shakllarining to'liqligini ta'minlash, yig'ish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish;

Bo'lim faoliyatiga tegishli masalalar bo'yicha konferensiyalar, seminarlar va yig'ilishlarda ishtirok etish.

10. Bo'lim quyidagilar uchun majbur:

o'ziga yuklatilgan vazifalarning lozim darajada va samarali bajarish;

vakolatiga kiruvchi tahliliy va boshqa materiallarni yuqori darajada tayyorlash;

Bo'lim xodimlari tomonidan me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq ijro intizomini ta'minlash.

4-bob. Bo'limning tarkibi

11. Bo'lim tarkibiga bo'lim boshlig'i, bo'lim boshlig'i o'rinnbosari, va mutaxassislar kiradi.

11. Bo'lim ishiga bo'lim boshlig'i rahbarlik qiladi.

12. Bo'lim boshlig'i, bo'lim boshlig'i o'rinnbosari va mutaxassislar boshqarma boshlig'i tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

5-bob. Bo'lim faoliyatini tashkil etish

16. Bo'lim faoliyati O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistikasi to'g'risida"gi qonuni, Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan Statistika ishlari dasturi, Statistika agentligi tomonidan tasdiqlanadigan Statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturi, Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi to'g'risidagi Nizom, mazkur Nizom, Statistika agentligi direktorining buyruqlari va topshiriqlariga muvofiq, shuningdek, Statistika agentligining ish rejalar, boshqarmaning ish rejalar, Bo'limning ish rejasi va bo'lim xodimlarining funksinal vazifalari asosida tashkil etiladi.

Bo'limning ish rejasi boshqarma boshlig'i tomonidan tasdiqlanadigan boshqarmaning ish rejalar asosida shakllantiriladi.

Xodimlarning funksional vazifalari Bo'lim boshlig'i tomonidan bo'limga yuklangan vazifalardan kelib chiqqan holda tayyorlanadi va boshqarma boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi.